



ENLIGHTENMENT AND ETHICAL VIEWS OF THINKERS

Salohiddin Usmonov

Senior Lecturer

Department of Pedagogy and Physical Culture

Urgut Branch of Samarkand State University

named after Sharof Rashidov

Urgut, Uzbekistan

Mastura Adilovna Rasulova

Lecturer

Department of Pedagogy and Physical Culture

Urgut Branch of Samarkand State University

named after Sharof Rashidov

Urgut, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Eastern thinkers; educational views; moral education; knowledge and enlightenment; teacher–student tradition; humanism; justice; spirituality; Beruni; al-Khwarizmi; Zamakhshari; pedagogical heritage.

Received: 04.02.26

Accepted: 05.02.26

Published: 06.02.26

Abstract: This article analyzes the educational and moral views of Eastern thinkers, their ideas on education and upbringing, as well as the role of these views in the moral development of young people. The scientific and theoretical aspects of the views of such thinkers as Muhammad al-Khwarizmi, Abu Bakr al-Khwarizmi, Abu Rayhan Beruni, al-Zamakhshari, Pahlavon Mahmud, Roqim, Ogahi, Komil Khorezmi, Ahmad Tabibi, and Avaz Otari are examined, particularly their perspectives on knowledge, morality, upbringing, humanism, justice, and teacher–student relationships. The study also highlights the possibilities of applying the heritage of Eastern scholars within the modern education system. Using an analytical approach, the article reveals the thinkers' calls for knowledge and enlightenment, the role of moral education in the personal development of youth, and their advanced ideas on shaping human virtues.

MUTAFAKKIRLARNING MA'RIFIY-AXLOQIY QARASHLARI

Salohiddin Usmonov

*Pedagogika va jismoniy madaniyat kafedrasi katta o'qituvchisi
Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universitetining Urgut filiali
Urgut, O'zbekiston*

Mastura Adilovna Rasulova

*Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universitetining Urgut filiali
Pedagogika va jismoniy madaniyat kafedrasi o'qituvchisi
Urgut, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Sharq mutafakkirlari; ma'rifiy qarashlar; axloqiy tarbiya; ilm-ma'rifat; ustoz-shogird an'anasi; insonparvarlik; adolat; ma'naviyat; Beruniy; Al-Xorazmiy; Zamaxshariy; pedagogik meros.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Sharq mutafakkirlarining ma'rifiy-axloqiy qarashlari, ularning ta'lim-tarbiya haqidagi g'oyalari hamda mazkur qarashlarning yoshlar tarbiyasidagi o'rni tahlil qilinadi. Muhammad al-Xorazmiy, Abu Bakr al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, az-Zamaxshariy, Pahlavon Mahmud, Roqim, Ogahiy, Komil Xorazmiy, Ahmad Tabibiy, Avaz O'tar kabi mutafakkirlarning ilm, axloq, tarbiya, insonparvarlik, adolat va ustoz-shogird munosabatlari haqidagi qarashlari ilmiy-nazariy jihatdan yoritilgan. Tadqiqotda Sharq allomalari merosining zamonaviy ta'lim tizimida qo'llash imkoniyatlari ham ko'rsatib beriladi. Maqolada mutafakkirlarning ilm-ma'rifatga da'vati, yoshlar kamolotida axloqiy tarbiyaning o'rni va inson fazilatlarini shakllantirish bo'yicha ilg'or g'oyalari tahliliy yondashuv asosida ochib berilgan.

МОРАЛЬНО-ПРОСВЕТИТЕЛЬСКИЕ ВЗГЛЯДЫ МЫСЛИТЕЛЕЙ

Салоҳиддин Усмонов

*Старший преподаватель
кафедры педагогики и физической культуры
Ургутского филиала Самаркандского государственного университета
имени Шарафа Рашидова
Ургут, Узбекистан*

Мастура Адилевна Расулова

*Преподаватель
кафедры педагогики и физической культуры
Ургутского филиала Самаркандского государственного университета
имени Шарафа Рашидова
Ургут, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: восточные мыслители; просветительские взгляды; нравственное воспитание; знания и просвещение; традиция «учитель–ученик»; гуманизм; справедливость; духовность; Беруни; аль-Хорезми; Замахшари; педагогическое наследие.

Аннотация: В статье анализируются просветительско-нравственные взгляды восточных мыслителей, их идеи о воспитании и образовании, а также роль данных взглядов в воспитании подрастающего поколения. С научно-теоретической точки зрения раскрываются воззрения таких мыслителей, как Мухаммад аль-Хорезми, Абу Бакр аль-Хорезми, Абу Райхан Беруни, аз-Замахшари, Пахлавон Махмуд, Роким, Огахий, Комил Хорезми, Ахмад Табибий и Аваз Отар, касающиеся знаний, нравственности, воспитания, гуманизма, справедливости и отношений «учитель–ученик». В исследовании также показаны возможности применения наследия восточных ученых в современной системе образования. На основе аналитического подхода в статье раскрываются призывы мыслителей к знаниям и просвещению, значение нравственного воспитания в становлении личности молодежи, а также их передовые идеи по формированию человеческих добродетелей.

Kirish. Xalqning bunyodkorlik qudrati jo'sh urgan hozirgi zamonda Uchinchi Renessansning ilmiy-ma'naviy poydevorini mustahkamlash, yoshlarni Vatanga muhabbat, milliy-diniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, mamlakatning islom sivilizatsiyasini rivojlantirish borasidagi rolini yanada oshirish hamda buyuk allomalarning jahon tamadduniga qo'shgan hissasini milliy va xalqaro miqyosda ommalashtirish maqsadida 2021-yil 16-iyulda O'zbekiston respublikasi prezidentining qarori qabul qilinadi. Ushbu qarorga asosan mamlakat tarixining yangi yuksalish davridagi yutuqlarini ilmiy asosda o'rganish, uni keng jamoatchilikka yetkazib berish bugungi kun ilmiy izlanuvchilarining asosiy burchidir[1]. Darhaqiqat, o'zbek xalqi o'zining uzoq tarixi davomida yaratilgan ta'lim-tarbiyaga oid boy merosga ega. Bundan tashqari, avlodlarda insonparvarlik, kamtarlik, mehnatsevarlik, do'stlik, iymon e'tiqod, mehr-oqibat, odoblilik kabi umuminsoniy fazilatlarni shakllantirishning o'ziga xos tajribasini to'plagan. Bizga ma'lumki, ma'naviy-axloqiy fazilatlar hech qachon o'z-o'zidan vujudga kelmaydi, balki ularning kelib chiqishining haqiqiy manbai, ularni keltirib chiqargan sabablar va harakatga keltiradigan kuchlar mavjuddir. Zero, har qanday axloqiy qoidalar muayyan tarixiy zaruriyat natijasiga vujudga keladi va muayyan qonuniyat asosida rivojlanib boradi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, Sharq mutafakkirlarining ta'lim-tarbiyaga oid qarashlari bu tajribaning shakllanishiga ulkan ta'sir ko'rsatgan. Tarbiya ham ota-onalarning burchi va farzandlarning haqqidir. Uzoq va boy tarixga

ega bo'lgan Markaziy Osiyo xalqlari o'zining ta'lim tarbiyaga oid boy merosini yaratib, takomillashtirib, yoshlarni insonparvarlik, ilmparvarlik, mehr-oqibat, mehnatsevarlik, insonlarga va tabiatga do'stlik, saxiylik kabi umuminsoniy fazilatlar ruhida tarbiyalab kelishgan. Darhaqiqat, ajdodlarimiz tomonidan qoldirilgan bebaho madaniy meros milliy ma'naviyatimizning o'zagini tashkil etadi. Shu sababli undan bugun yoshlarimizning ta'lim va tarbiyasiga keng foydalanish maqsadga muvofiqdir. Chunki, "Ajdodlarimizdan qolgan meros millatimizning nafaqat o'tmishi, shuningdek, istiqboli uchun ham kuch va fidoiylilik manbai hisoblanadi"[6]. Har bir xalqning ta'lim-tarbiyaga oid an'analari borki, ular pedagogik tafakkur taraqqiyotining asosi bo'lib xizmat qiladi va bola tarbiyasi haqidagi tasavvurlar va qarashlarni ifodalaydi. Yuqorida aytganimizdek, har bir ota ona o'z farzandlarini barkamol inson bo'lishini istaydi, o'zlari yeta olmagan orzu-umidlariga bolalarining yetishligini o'ylaydi. Bolalarning har bir yutug'idan quvonishadi, mag'lubiyatidan tashvishga tushishadi. Farzandlarini baxtli ko'rish ular uchun eng baxtiyor damlar hisoblanadi. Buning uchun ularga bor kuch-quvvatini sarflashadi. O'tmishda buyuk allomalarimiz, yuksak darajadagi ma'naviyat, axloq-odob saboqlarini berganliklari, Vatan, xalq istiqboli, farovon turmush, halol mehnat, fan taraqqiyoti, inson mehnati, atrof-muhitga oqilona munosabat haqidagi o'z qarashlarini bayon qilib berganliklariga guvoh bo'lamiz.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya Ma'lumki, VII – IX asrlarda Xorazm obodonchilik, qurilish inshootlarning yuksalishi jihatdan Sharq mamlakatlari ichida katta mavqeyga ega edi. Qo'shni davlatlar va xalqalar bilan savdo aloqasining mustahkamligi tufayli uning madaniyati ham tezkorlik bilan rivojlanib borayotgan edi. Quyida Xorazm diyorida yetishib chiqqan bir necha mutafakkirlarning ma'naviy-axloqiy qarashlari bilan tanishtirib o'tamiz.

Muhammad ibn Musa al-Xorazmiy(780(3) – 850) butun dunyo ilm olamini zabt etgan qomusiy olimdir. Uning riyoziyot va falakiyot ilmiga asos solgani o'z zamonasida ham, hozir ham tan olingan. olimlarning faoliyatlari va insomiy fazilatlar haqidagi dono fikrlari hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan[2]. Mutafakkirlarning fikricha, har bir kishi (olim) qilgan ishlari bilan hecham mag'rurlanmasligi va takabburlik qilmasligi lozim: " O'tmish davrlarida o'tgan xalqlarning olimlari fanning turli tarmoqlari va falsafaning turli bo'limlari sohasida asarlar yozishda tiyilmas edilar. Bu bilan ular o'zlaridan keyin keladiganlarni nazarda tutardilar hamda shon-sharaf va yod tutish bilan mukofotlanardilar, rostgo'y lablardan maqtovlar aytishadi deb ishonardilar. Chunki ular fanning maxfiy sirlarini yechish uchun o'z bo'yinlariga olgan qiyinchiliklar va mehnatlarini bunga arzimasi deb bilardilar. Ulardan biri o'zidan avvalgilarga qila olmagan ishlarini amalga oshirishda boshqalaridan o'zib ketadi va uni o'zidan keyin kelguvchilarga meros qilib qoldiradi. Boshqasi o'zidan avvalgilarning asarlarini sharxlaydi va bu bilan qiyinchiliklarni osonlashtiradi, yopiqni ochadi, yo'lni yoritadi va uni tushunarliroq qiladi. Yoki bu ayrim kitoblarda nuqsonlar topadigan va sochilib yotganini to'playdigan odam bo'lib, u

o'zidan avvalgilari haqida yaxshi fikrda bo'ladi, takabburlik qilmaydi va o'z qilgan ishidan mag'rurlanmaydi". Muhammad ibn Al-Xorazmiy ham mana shunday olimlarimizdan bo'lib jumladan uning "Vasiyatlar kitobi"da shunday deyiladi. Islomda meros ulashish huquqi shariatga ko'ra belgilangan bo'lib, unga Qur'onda "Niso" surasining quyidagi oyatlari asos qilib olingan: "Allox sizlarga bolalaringiz haqida vasiyat qiladiki, o'g'ilning ulushi ikki qizning ulushiga teng, agar ayollar ikkitadan ortiq bo'lsa, ularga otasi qoldirgan molning uchdan biri; agar ayol bitta bo'lsa, unga yarmi va ota-onasining har biriga u qoldirganning oltidan biridir. Agar uning akalari bo'lsa onasiga u vasiyatnomasida vasiyat qilganidan yoki ota-onasining qarzlari to'laganidan keyin qolganning oltidan biridir (12-oyat). Islomda meros ulashishning sha'riy huquqiga ko'ra onasi molning 1/6 ni, xotini 1/8 ni olgani uchun kerakli yoki zaruriy meros, ya'ni onasi, xotini, aka-ukalari va opa-singillar orasida ulashiladi. Kerakli meros 8/9 qism bo'lgani uchun butun mol 9/8. $48=54$ qismga bo'linadi, bundan 9 qismi vasiyat qilingan kishiga tegadi, 8 qismi onasiga, 6 qismi xotiniga, qolgan qismlar esa aka-ukalari va opa-singillar orasida teng ulashiladi[3].

Abu Bakr Muhammad ibn al-Abbos al-Xorazmiy (935-993) risolalarida mardlik, sahiylik, rostgo'ylik, kamtarlik, do'stlik, oliyjanoblik, imsonparvarlik, adolatparvarlik g'oyalarini ilgari suradi. Uning fikricha, mamlakatni obod, ulusni esa baxtiyor qilishning asosiy sharti adolatparvarlikdir. Shuning uchun ham adolatni ulug'laydi va mamlakat hukmdorini odil va insonparvar bo'lishiga chaqiradi: "Agar hokimiyat atrofida adolat hukm surmasa, u inqirozga yuz tutadi". Mufakkirlar kishilarni bir-birini hurmat qilishga va o'zaro yaqin do'stona munosabatda bo'lishga undaydi: "Hurmat - ehson bilan barabardir. Do'stlashish murojaat emas, xushmuomalalikdir, xushmuomalalik va chuqur tekshirish va o'rganishni uzoqqa cho'zmaydi, hisob va sarfni ko'tarmaydi ham". U insonparvarlik, oliyjanoblik va sahiylikni ulug'lab: "Oliyjanob kishi agar jarohatlansa (birov uni bog'lab qo'yadi, o'tirsa yamaydi, agar bir tomondan zarar keltirsa, har tomondan foyda keltiradi. Oliyhimmat zafarining karomati (shundaki), agar qo'lga kiritsa (boshqalarga) beradi, pastkash zafarining qabhligi shundaki, agar qo'lga kiritsa, ko'proq qo'lga kiritishni istaydi", - deydi.

Abu Bakr al-Xorazmiy ota-onaning va ta'lim-tarbiya beruvchi ustozning bola tarbiyasidagi vazifasini juda ham aniq ko'rsatib beradi: «Ota-onalar ikki xil: tug'lish otasi va ta'lim berish otasi, birinchisi jismoniy hayot sababli, ikkinchisi ruhiy hayot sababli».

Abu Rayhon Beruniy (973–1048) ilmning qadr-qimmatini yuksak baholagan holda, insonni chin fazilati ilmda ekanini alohida ta'kidlaydi: «Ilm o'zi lazzat bag'ishlaydi. Odamlar ilm tufayli ezgulikka erishadilar. Ular ilm tufayli yovuzlikdan xalos topadilar. Shuning o'zi eng aniq foyda, eng katta davlat emasmi, axir". Beruniy "Hindiston" asarida "Odamlarning ilmga rag'bat qilishi, ilm va ilm ahllarini hurmat qilishi, o'sha iqbolning belgilaridir", — deb yozadi.

Beruniyning fikricha, kishilarning ijtimoiy kamoloti ilm-ma'rifat yordamida tarbiyalanadigan, aqliy va axloqiy qoidalar hamma joyda joriy qilingandagina amalga oshirilishi mumkin. Qolaversa, insonning axloq-odoblari bo'lishi, avvalo, uning o'ziga bog'liq, chunki "inson o'z ehtirolariga hukmron, ularni o'zgartirishga qodir, o'z jon va tanini tarbiyalar ekan, salbiy jihatlarni ma'naviy shifokorlik bilan davolashga hamda asta-sekin, axloq haqidagi kitoblarda ko'rsatilgan usullar bilan illatlarni bartaraf etishga qodirdir". Beruniy xalqlar o'rtasidagi do'stlikni yoqlab o'zaro nizolarni qoralaydi. U kishilarni do'st-inoq bo'lib yashashga da'vat etarkan, "insonni chuqur hurmat qilmasdan turib, unga qattiq ishonmasdan turib do'stlashish mumkin emas" balki, "Dushmanlar hamisha nasablarga ta'na qilish, nomuslarni yerga urish, turli uydirma gaplar tarqatishga urinadilar. Do'stlar esa halol yetkazadigan yo'lni to'sishga, go'zallikni izhor etishga, yaxshiliklarga nisbat berishga tirishadilar", — deydi. Mutafakkir o'zining pedagogik va didaktik qarashlarida, o'quvchilarni o'qitish hamda tarbiyalash jarayonida birinchidan, turli mavzularda mulohazalar yuritishni, shuningdek, o'quvchining zerikmasligini, xotirasiga malol keltirmaslikni (zo'riqtirmaslikni) ta'kidlab: "Bizning maqsadimiz o'quvchini toliqtirib qo'ymaslikdir, hadeb bir narsani o'qiyverish zerikarli bo'ladi va toqatni toq qiladi. Agar o'quvchi bir masaladan boshqa bir masalaga o'tib tursa, u xuddi turli-tuman bog'-rog'larda sayr qilgandek bo'ladi, bir bog'dan o'tar-o'tmas, boshqa bog' boshlanadi. Kishi ularning hammasini ko'rgisi va tomosha qilgisi keladi. Har bir yangi narsa kishiga rohat bag'ishlaydi, deb behuda aytilmagan". Beruniy yoshlarning baxt-saodati va kamolotini uning ilm-ma'rifatli bo'lishida deb biladi. Shuning uchun ham u yoshlarni ilm-ma'rifatga chorlaydi: "Ilm dargohiga kirar ekansan, qalbing kishini ozdiruvchi illatlardan, odamni ko'r qilib qo'yadigan holatlardan chunonchi qotib qolgan urf-odatlardan, hirsdan, raqobatdan, ochko'zlik quli bo'lishdan, o'z hokimligi uchun kurashishdan ozod bo'lmog'ing darkor". Beruniy bolalarga bilim berish bilan ularni nodonlikdan holi etish uchun kurashar ekan: "bilimlilik orqali nodonlik ko'tariladi, azob-uqubat bo'lgan shak-shubha o'rniga ilm natijasida aniqlik kiradi". Mutafakkir ilmi bo'lish, yaxshi inson bo'lish oson emasligini, bu esa faqat chidam bilan qilingan mehnat mahsuli ekanligini ta'kidlaydi: "Daryolarning doimo dengizga qo'yilishi uning suviga ta'sir ko'rsatmaganidek, amal va lazzat — haqiqiy ilm oluvchiga ta'sir ko'rsata olmasligi kerak". Olim pedagogik didaktikasida ilm olishda taqqoslash, chog'ishtirish, qiyoslash, tajribalar o'tkazish uslubiyati (metodikasi)ni targ'ib qiladi: "Inson bir narsani hamisha eslayversa, o'sha inson tabiatiga o'rnashib qoladi. Hatto o'ylashni maqsad qilmasa ham, o'sha narsani eslayveradi. Natijada bilib olmaganini bilib oladi". Shuningdek, Beruniy o'qitish turlari — o'qib o'rganish, takrorlash orqali ilm olish, kitob o'qishning usul va uslubiyatlari haqida ham to'xtalib; kitoblarni to'xtab-to'xtab (fikrlab kichik-kichik bo'limlarga bo'lib) o'qish, hamma o'qilgan sahifalarini umumlashtirib qayta o'qish lozimligini uqtiradi. Bu o'rinda u o'qitishda faqat induktiv yo'l bilan ham ish tutmoqlikni maslahat beradi.

Chunki u “sintez” bilan “analiz” singari “induksiya” bilan “deduksiya” ham bir-biriga bog’liq ekanligidan to’g’ri xulosa chiqara olgan.

Abulqosim Mahmud ibn Umar az-Zamaxshariy (1074-1144)ni o’z davrida sharq mamlakatlarida “Faxr Xorazm” (Xorazmning faxri) yoki “ustod al-arab va ajam” deb bejiz aytishmagan. Hatto, Suriya hokimi Muzaffariddin az-Zamaxshariyning “Al-mufasssal” (“Eng yaxshi lug’atlar”) risolasini yoddan bilgan kishiga besh ming dinor va sargo hadya qilgan. Zamaxshariyning “Atvoq uz zahab fi-l-mavoizi val-Xutob” (“O’git va nasihatlarining oltin shodalari”) degan falsafaviy-didaktik asari ma’rifiy-pedagogik va axloqiy tarbiya masalalariga bag’ishlanganligi uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Mutafakkir o’zining axloqiy qarashlarida o’z zamonasidagi turli tabaqa kishilarining jamiyatda tutgan o’rni va odob-axloqi to’g’risida fikr yuritarkan, u shaxsning kimligidan, ya’ni qaysi nasabga mansubligidan qat’i nazar (podshohmi yoki oddiy fuqaro), avvalo u xushxulq va g’ozal odamiylik ziynatiga ega b’olmog’i kerakligi to’g’risida gapirdi va: "Xushsifat va yaxshi xulqlar ziynatlagan kimsani ipak kiyimlar ziynatlay olmaydi", - dedi. Zamaxshariy o’zining pedagogik qarashlarida yoshlarni o’zidan kattalarni hurmat qilishga da’vat etish bilan birga, bola tarbiyasida ota-onaning roli haqida ham qimmatli xush-axloq, odobli, mehnatsevarlik, aql-idrokli qilib tarbiyalamoqchi ekan, avvalo, bolani me’yoridan ortiqcha erkalatmasdan doimo nazoratda tutish kerakligini uqtirib: "Hayvonni siylasa, shodlanib egasini tepadi, odam bolasi erkalansa, shodlanib ota-onasini azobga q’oyadi", - deydi. Zamaxshariyning ma’rifiy-axloqiy qarashlarining davomchisi Paxlovon Mahmud (1247-1326)ning fikricha, inson eng yuksak kamolotidir, lekin inson ana shunday sharaflı nomga loyiq b’olishi uchun avvalo g’ozal insoniy fazilatga va axloqqa ega b’olishi lozim. Mutafakkir talqinicha, axloqiy fazilatlar o’z-o’zidan, vujudga kelmaydi, aksincha, kishilar o’rtasidagi o’zaro munosabatdan kelib chiqadi va rivojlanadi. Uningcha, odamlar o’z tabiatiga k’ora turlichadir; shunday odamlar borki, ular ochiq k’ongil b’olib: "K’ongli pok, na kek va na ginani biladi, mevali daraxtga o’xshaydilar, ularni hamma hurmat qiladi". Ammo shunday odamlar ham borki, "kekdan o’zga unda b’olmas zohir hech", - deydi.

Roqim (1742-1814) ning zamondoshlari xotirlashicha, u zabardast shoir b’olibgina qolmay, balki maktablar ochib talabalarga dars ham bergan. Shoir maktabning ilm-u ma’rifat tarqatishdagi ahamiyatini ta’kidlab, bu y’olda ustoz o’z shogirdlarining baxtli kelajagini oldindan k’ora bilishini va ularga ilmni egallashda mehr-oqibatli bo’lishni uqtiradi. Roqim ustoz va shogirdlarning o’zaro munosabatiga to’xtalar ekan, kimki ustoziga ixlos qilib, uni hurmat-izzat qilsa, albatta, o’z maqsadiga erishadi, agar ustozni taxqir etsa, u xor-u zor bo’ladi, deb hisoblaydi. Shuningdek u yoshlarni har bir ishni hal eta oladigan qobiliyatga ega bo’lishi uchun ilm-hikmat yo’lidan borishga va ustoz-u donishmandlar suhbatidan bahramand bo’lishga da’vat etadi. Roqim ta’lim masalasida

to'xtalib, o'tilganlarni qayta-qayta takrorlashga, kitob mutolaasiga, dars mazmuniga bolaning aql-idroki va zihnini o'tkirlashtirishga alohida e'tibor beradi.

Borib maktabga kasb aylab kamolot,

Chiqarib har biri xatu savodin.

Bõlub manzil alarg'a ma'dani ilm,

Qilib dars ibtidosin azkiyodin.

Muhammad Rizo Ogahiy (1809-1874) insonning bekamu-ko'st kamolga yeti-shini yoshlikdan ta'lim-tarbiya, kasb-hunar egallash masalalariga to'xtalib, shu yo'sinda shoir ilm-ma'rifat insonning ma'naviy kamolotida va jamiyatning taraqqiyotida ham kuchli vosita ekanligini alohida ta'kidlaydi:

Ilm andoq ganji nafoe'dur bani odamg'akim,

Kimda ul bo'lsa, ikki olam bo'lur obod anga.

Ayniqsa, Ogahiyning yoshlarni dunyoviy ilmni xususan mantiq (logika) ni o'rganishga da'vat etishi muhim ahamiyatga egadir. Qizig'i shundaki, Ogahiy ma'rifat g'oyasini dunyoviy sevgi orqali bayon etadi.

Ul malak siymoki, barcha ilm bo'lmish yod anga,

Ro'za shab darsu saboq takroridur mu'tod anga.

Sarfu nahvu mantiq ichra toki sa'y eti ayon,

Sebvayh ruhi qilur tahsinu ham imdod anga...

Ogahiy o'zining ma'rifiy-axloqiy qarashlarida shaxsning nafosat (estetik) tarbiyasiga va nutq madaniyatiga alohida e'tibor beradi. Uningcha, kishi o'zining behuda gaplaridan tiyilishi, o'z gaplari bilan suhbatdoshiga va tevarak-atrofidagilarga lazzat bag'ishlashi va eng go'zal insoniy fazilatlardan hisoblanadi. Shoir o'zining nafosat ruhidagi qarashlarida she'r san'ati uchun quyidagi uch muhim fikrni ilgari suradi: shaklga emas, balki mazmunga ahaamiyat berish; sof yurak bilan haqiqatni gapirish; so'z qadriga yetadigan kishilarni doimo nazarda tutish.

Komil Xorazmiy (1825-1899) ilm-ma'rifatni nodonlikka, jaholatga qarshi kurashda va insonning axloqiy kamolotida tarbiyaviy vosita hamda hayotining zebu-ziynati sifatida ta'riflaydi:

Emas kishiga bu dunyoda mulk-mol kamol,

Xusuli ilmu hunar keldi bezavol, kamol.

Komil Xorazmiyning fikricha, shaxs kamolga yetmok uchun ilm olsun, hunar o'rgansin, ammo jamiyatda tutgan mavqeidan foydalanib, qabihlik yo'liga kirmasin, deb pandu-nasihat qiladi: "Kamol ma'nosi tahsil ilm xoldurur, na hosil aylagusi maxs qiyuqol kamol".

Shoir yoshlarni kamol topishi uchun kamtar, dono, farosatli va xushfe'l bo'lishga undaydi:

Jahonda istar esang sarbalandlig' - past o'l,

Topar boshi oshoq o'lg'on soyi zulol kamol.

Kamolsiz kishi har yerdadur hijolatmand,
Yetkurmagay kishiga hargiz infi'ol kamol.

Komil Xorazmiyning axloqiy-ma'rifiy g'oyalari uning vatanparvarlik g'oyalari bilan uzviy bog'liqdir. Shoirning «G'urbat aro» g'azali vatanparvarlik g'oyasi bilan yo'g'rilgandir:

Nihon tut uzni vatan kofiy ichra anoqodek,
Senga yo'q bo'lsa murod ishhior g'urbat aro.
Vatanda sekin ulub sayr et olami bolo,
Safarni aylamagil ixtiyor g'urbat aro.

Komil Xorazmiyning o'g'li Muhammad Rasul Mirzo ham ma'rifiy-axloqiy mavzuidagi she'rlarida insonparvarlik, mehnatsevarlik, rostgo'ylik, adolatparvarlik, go'zal odob-axloq haqida chuqur fikr yuritadi. Chunonchi, shoir shoir yoshlarni o'ziga qadrdon va haqiqiy do'st orttirishga undab, nokasu-pastkash toifadagi kishilar bilan hamsuhbat va do'st bo'lmaslikka chaqiradi:

Suhbat har sifla bila aylami hirgiz, Mirzo,
Ayla majlis tuzubon yor qadrdon bila bazm.

Ilyos Mulla Muhammad o'g'li So'fi (1860–1918) ning ma'rifiy-didaktik mazmundagi «Talmiz», «Ustoz», «Mudarris», «Dars» radifli g'azallarida ma'rifatparvarlik g'oyalari ilgari suriladi. Shoir ilm-ma'rifat haqida gapirarkan, fozil va oliyjanob ustozning o'quvchilar oldidagi burchini shunday ta'riflaydi:

Tariki ilmga talab xaylin,
Tutub ilkin muddallaldur mudarris.
Banogoh, maniy dars ulsa mushkul,
Bu mushkulga muhallaldur mudarris

Ahmad Tabibiy (1869–1910) ham yoshlarga ilm olishni tashviq qilar ekan, bilimni egallash uchun qunt bilan mutolaa qilish zarurligini, shundagina asosiy maqsadga yetish mumkinligini ta'kidlaydi. Shoir yoshlarga kishi qanchalik ilimli, odobli bo'lsa qayerda bo'lmasin izzat-ehtiromda bo'lishini, agar ilm-u odobdan bebahra bo'lsa, umda umri xor-u zorlikda o'tishini uqtiradi. Shoir she'riyatida g'azal, ruboiy, muhammas, musaddas, musammal, murabba, masnaviy, qasida singari janrlarda ijod qilgan. Uning qahramonlari pok muhabbati, shudring kabi toza niyati, go'zal odob-axloqi bilan maftun etadi. Ayniqsa, «Volaq va Azaro» dostoni qahramonlari turli tomonlama o'rnak bo'lgulik. Unda vatanparvarlik, insonparvarlik, tinchlik, do'stlik, bir-biroviga sadoqat, diyonat, mehr-oqibat ohanglari yuqori pardalarda jaranglaydi.

Ilm birla ma'rifat ta'limini tark etmagil,
Hosil et bor necha xon takror ilmu ma'rifat.

Avaz O'tar (1848–1919) ning «Maktab», «Til» she'rlari didaktikaning eng yaxshi namunasi bo'lib, shoir maktab - ilm-ma'rifat o'chog'i degan g'oyani va go'zal odob-axloqni targ'ib qiladi.

Ma'rifatparvar shoir o'zining axloqiy-didaktik g'oyalarida bolalarni axloqiy jihatdan yetuk kishi qilib tarbiyalash to'g'risida gapirganda, rostgo'ylik va halollikni qadrlash, yolg'onchilikni esa qoralashni uqtiradi. Avazning fikricha, yolg'on gapirgan kishiga hayotning o'zi jazo beradi: u yolg'on-yashiq gapirib maqsadiga erishish o'rniga, kulfatga giriftor bo'ladi deydi. Shuning uchun ham u yoshlarni har qanday sharoitda ham haq va to'g'ri so'zni aytishga da'vat etadi:

Baloi nogohondur kizbkim, andin panoh etgil,

Ular holatda ham deb rost so'z holin taboh etgil.

Avaz bolalarda yaxshi odob-axloqni tarbiyalashda kattalar ibrat bo'lishi kerakligini aytadi. U yaxshi odob-axloq tushunchasini kamtarlik, haqqoniylik, sodiqlik va yaxshilikdan iborat deb biladi. Bu fazilatlar «yaxshi kishining» tashqi va ichki dunyosini tashkil etadi. Yaxshi kishilar, uning fikricha, hech qachon dog'da qoldirmaydilar va o'zlariga ko'rsatilgan ishonchni oqlaydilar. U yoshlarga qarata, agar do'stlaring ko'payishini istasang, yaxshi axloqni o'zingga odat qil, deydi.

Xulosa. Sharq mutafakkirlarining boy ilmiy-ma'rifiy va axloqiy merosi bugungi yoshlar tarbiyasida muhim manba sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Al-Xorazmiy, Beruniy, Zamaxshariy, Ogahiy, Komil Xorazmiy kabi allomalar ilmga muhabbat, halollik, adolat, insonparvarlik, kamtarlik, odob-axloq kabi fazilatlarni inson kamolotining asosiy omili deb bilganlar. Ularning ta'lim-tarbiya haqidagi fikrlari, ustoz-shogird munosabatlariga doir qarashlari, yoshlarning ma'naviy kamolotiga qo'ygan talablari zamonaviy ta'lim jarayoni uchun ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Mutafakkirlar ilmni jaholatga qarshi eng kuchli qurol sifatida baholagan, yoshlarni kitobxonlikka, o'qib-o'rganishga, odob-axloqni yuksaltirishga undagan. Shuningdek, ular axloqiy barkamollikning jamiyat ravnaqidagi o'rnini chuqur asoslab berganlar.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Sharq allomalari merosini chuqur o'rganish va uni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish yoshlarning ma'naviy dunyosini boyitadi, ularni barkamol insonlar sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi. Mazkur meros oila, maktab va jamiyatning tarbiyaviy faoliyatida muhim metodik asos bo'lib, yosh avlod qalbida ma'naviy qadriyatlarni shakllantirishda ulkan ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori. "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi Markazi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida." 21 June 2021.
2. Saliy. Muhammad al-Xorazmiy – Buyuk O'zbek Olami. Toshkent, 1954, p. 5.
3. Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy. Tanlangan Asarlar. Toshkent, 1983.
4. Hoshimov, Q., and S. Ochil. O'zbekiston Pedagogikasi Antologiyasi. Toshkent, 1995, pp. 322–360.

5. Jalilov, Z. B. “Sharq Mutafakkirlari Merosini O‘rganishning Didaktik Metodlari.” Zamonaviy Ta’lim, no. 5, 2017.
6. Hamdamova, M. Ma’naviyat Asoslari. Fan va Texnologiya, 2008.
7. Hoshimov, K., S. Nishonova, M. Inomova, and R. Hasanov. Pedagogika Tarixi. O‘qituvchi, 1996, p. 89.
8. Bobojonov, D., and M. Abdurasulov. Abadiyat Farzandlari. Xorazm Ma’mun Akademiyasi Nashriyoti, 2009.
9. Farmonova, M. Sharq Mutafakkirlarining Ma’naviy Merosida Farzand Tarbiyasi. Ilmiy-uslubiy qo‘llanma, Toshkent, 2019.
10. Ilm-fan Taraqqiyoti: Muammolar, Yechim va Istiqbollar. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti, 19–21 Dec. 2023.